

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon davlat universiteti

rektori D.Sh. Xodjayeva

29-avgust 2025 yil

GEOGRAFIK TA'LIMNING TADQIQOT METODOLOGIYASI

fanining o‘quv dasturi

Bilim sohasi: 500 000 - Tabiiy fanlar, matematika va statistika

Ta’lim sohasi: 530000 - Fizika va tabiiy fanlar

Ta’lim yo‘nalishi: 70530203-Aniq va tabiiy fanlarni
o'qitish metodikasi (Geografiya)

Qo‘qon – 2025

Fan/modul kodi		O'quv yili	Semestr	ECTS-kreditlar
GTTM2205		2025-2026	2	5
Fan/modul turi (Tanlov)		Ta'lim tili O'zbek	Semestrga ajratilgan soat 150	Haftdagi dars soatlari 4
1	Fanning nomi	Audutoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama
	Geografik ta'limning tadqiqot metodologiyasi	60	90	150
2	I. Fanning mazmuni: Geografik ta'limning tadqiqot metodologiyasi kursining asosiy mazmuni magistr'larga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiya doirasida ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va bajarish, turli katta-kichiklikdagi murakkab tabiiy va sotsial-iqtisodiy tizimlar hamda ularning elementlarini ilmiy tadqiq etish haqidagi bilimlarni qo'llay oladi. Fanning asosiy vazifalari: - talabalar tomonidan geografik ta'limning tadqiqot metodologiyasi fanidan asosiy nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash; - geografik ta'limning tadqiqot metodologiyasi fani yuzasidan kerakli manbalarini tahlil qilish va ilmiy tadqiqot tamoyillari va talablaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish; - geografik tadqiqotlarni amalga oshira olish qobiliyatini rivojlantirish Fanning asosiy manbalari: Geografik ta'limning tadqiqot metodologiyasi fani o'z manbalariga ega bo'lib, mamlakatning oliy vakillik organi hamda vakolatli davlat hokimiyat idoralari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy xujjatlar, ilmiy adabiyotlar hamda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar fanning asosiy manbalari bo'lib hisoblanadi. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Geografik ta'limning tadqiqot metodologiyasi fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Moskva davlat universiteti (Rossiya)ning "Геоэкологические аспекты сельского хозяйства", «Оценка земель и земельный кадастр», «Ландшафтное планирование и дизайн», «Социальная экология» fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2025-yil bo'yicha 105-o'rinni egallagan bo'lib, geografiya sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Moskva davlat universiteti (Rossiya)ning «Оценка земель и земельный кадастр», «Ландшафтное планирование и дизайн», «Социальная экология» kurslarida geografik tadqiqotlar metodologiyasi yuzasidan nazariya bilan bir qatorda, zamonaviy tadqiqotlar amaliyoti ham keng yoritiladi.			

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro talablarning tabiatdan foydalanish va barqaror rivojlanish tamoyillari asosida boyitilgan.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar ekologik holatning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy jihatlarini bo'yicha yuzaga kelgan holatlarni mustaqil tahlil qilish, omillarga tayangan holda ilmiy xulosa chiqarishni o'rganadilar.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

1-mavzu: Kirish. O'quv kursining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Geografiya fanining tuzilishi va amaliy ahamiyati.

Geografik ta'limning tadqiqot metodologiyasi kursi, maqsadi, vazifalari, ahamiyati. Geografiya fanining ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot usullari.

2-mavzu: Tabiiy geografik tadqiqot metodologiyasi va nazariyasi.

Tabiiy geografik tadqiqotlar to'g'risida. Tadqiqot usullari. Tadqiqotlarda nazariy ma'lumotlardan foydalanish usullari, amaliy tahlil.

3-mavzu: Tabiiy geografik tadqiqotlar.

Tabiiy geografik obyektlar va jarayonlar ustida tadqiqotlar olib borish. Tabiat komponentlarini o'rganish, ularni baholash, prognozlash, tavsiyalar ishlab chiqish.

4-mavzu: Geotizmlarni tahlil qilish.

Geografik tizimlarni tahlil qilish. Litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera, landshaft, joy, fatsiya holati, o'zgarishini baholash. Geotizimlardan samarali foydalanish usullari.

5-mavzu: Landshaftli rejalashtirish nazariyasi va metodologiyasi.

Tabiatdan xo'jalikda foydalanishda landshaftli yondashuv. Landshaft elementlarining tabiiy geografik imkoniyatlarini baholash, antropogen ta'sirlarga chidamlilik darajasini aniqlash. Ilmiy asoslangan xo'jalikni tashkil etish.

6-mavzu: Tabiat va jamiyatning global o'zgarishi. Ekologik krizis.

Tabiatning bir butunlik qonuniyati. Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi. Antropogen ta'sir natijasida tabiat elementlarining o'zgarishi hamda shu bilan bo'g'liq holda jamiyat hayoti va xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlar.

7-mavzu: Geografik ma'lumotlarni qayta ishlash va tasvirlash.

Geografik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish usullari. Statistik va kartografik ma'lumotlar bilan ishlash. Olingan xulosalar asosida xarita, jadval, diagrammalar, kartogrammalar tayyorlash usullari.

8-mavzu: Yer resurslarini qishloq xo'jaligida foydalanish jihatidan baholash.

Yer resurslari. Yer fondi. Yer toifalari va turlari. Yer resurslarini iqtisodiy baholash. Yerlarning tabiiy agrar imkoniyatlarini baholash. Qishloq xo'jalik tarmoqlarini tashkil etishda yer resurslarining ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy jihatlarini hisobga olish.

9-mavzu: Iqtisodiy geografik tadqiqotlar metodologiyasi.

Iqtisodiy geografik tadqiqot usullari. Iqtisodiy geografik obyektlar, iqtisodiy geografik jarayonlarni baholash. Kartografik, statistik, qiyosiy tahlil, hududiylik usullari.

	10-mavzu: Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish. Hududni o'rganish. Iqtisodiy va ijtimoiy geografik obyektlarni o'rganish. Mavjud holatni tahlil qilish. Holatni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish. Iqtisodiy-ijtimoiy geografik obyektlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish. 11-mavzu: Sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini geografik o'rganish. Sanoat tarmoqlarining geografik joylashuvi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, atrof-muhitga ta'siri. Qishloq xo'jalik tarmoqlari tarkibi, ixtisoslashuvi, atrof-muhitga ta'siri. Aholining tabiatdan foydalanish madaniyati. 12-mavzu: Ijtimoiy geografik tadqiqotlarni tashkil etish. Ijtimoiy geografik obyektlarning hududiy joylashuvi, ixtisoslashuvi. Mavjud real aholini qamrab olish imkoniyati. Jamiyat taraqqiyotidagi roli. Atrof-muhitga ta'siri. 13-mavzu: Aholi va mehnat resurslarini, aholi manzilgohlarini geografik jihatdan o'rganish. Aholining asosiy ishlab chiqaruvchi kuch va istemolchi ekanligi. Mehnat resurslari tarkibi, salohiyati, miqdoriy va sifatiiy ko'rsatkichlari. Aholi manzilgohlari va ularning turlarini tahlil qilis. Aholi manzilgohlarini to'g'ri tashkil etishda geografik omillarning tahlili.. 14-mavzu: Demografik tadqiqotlar. Tabiat va jamiyat munosabatlarida demografik jarayonlarning o'rni. Demografik tadqiqotlar o'tkazish usullari. Demografik tadqiqotlar va demografik tavsiyalarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Demografik muammolar. 15-mavzu: Tadqiqot hisobotini tayyorlash. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari hamda qilingan xulosalarni umumlashtirish. Tadqiqotlar yuzasidan hisobotlar tayyorlash. Hisobotlarning mazmunli, ilmiy, asosli bo'lishiga erishish.
	III. AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR Amaliy mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1-mavzu: Kirish. O'quv kursining predmeti, maqsadi va vazifalari. Geografiya fanining tuzilishi va amaliy ahamiyati 2-mavzu: Tabiiy geografik tadqiqot metodologiyasi va nazariyasi 3-mavzu: Tabiiy geografik tadqiqotlar 4-mavzu: Geotizmlarni tahlil qilish 5-mavzu: Landshaftli rejalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. 6-mavzu: Tabiat va jamiyatning global o'zgarishi. Ekologik krizis. 7-mavzu: Geografik ma'lumotlarni qayta ishlash va tasvirlash. 8-mavzu: Yer resurslarini qishloq xo'jaligi jihatdan baholash. 9-mavzu: Iqtisodiy geografik tadqiqotlar metodologiyasi 10-mavzu: Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish 11-mavzu: Sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini geografik o'rganish 12-mavzu: 12-mavzu: Ijtimoiy geografik tadqiqotlarni tashkil etish. 13-mavzu: Aholi va mehnat resurslarini, aholi manzilgohlarini geografik jihatdan

	o'rganish. 14-mavzu: Demografik tadqiqotlar. 15-mavzu: Tadqiqot hisobotini tayyorlash
	IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi: - esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish; - dokladlar tayyorlash; - kurs ishi yozish; - konspekt yozish; - glossariy tuzish; - individual va guruhli o'quv loyihasi; - keys-topshiriqlarini bajarish; - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; - manbaalar bilan ishlash; - xaritalar ishlash; - multimediali taqdimotlar yaratish; - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash; - darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash; ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin. IV.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari: 1. Ixtiyoriy mavzuda tadqiqot loyihasi tayyorlash 2. Metod tasniflarini tahlil etish 3. Daliliy materiallar kartasini tuzish va uni tahlil qilish 4. Geotizimlarni kuzatish nuqtalarini tanlash, kuzatiladigan jarayonlarni tasniflash 5. Iqlim ko'rsatkichlarini diagrammalarda aks ettirish 6. Ixtiyoriy tanlangan meridian yo'nalishida kompleks profil tuzish 7. Landshaft kartalari va ularni shartli belgilarini tahlil qilish 8. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarkibiy tuzilishi 9. Iqtisodiy geografik tadqiqotlarda statistik va kartografik usullarni qo'llash 10. Ijtimoiy demografik so'rov (anketa) usulini qo'llas 11. Dala sharoitida iqtisodiy geografik tadqiqotlarni tashkil etish uslubiyoti 12. Viloyatlar aholisi bo'yicha statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va qayta ishlash 13. Aholi kartalarini tuzish usullari 14. Viloyatlar qishloq xo'jaligi bo'yicha statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va qayta ishlash 15. Aholiga xizmat ko'rsatish muassasalarining hududiy tarkibini baholash
3.	V. TA'LIM NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOMPETENSIYALAR) Talaba bilishi kerak: Geografik ta'limning tadqiqot metodologiyasi kursi yuzasidan kollokvium. 1) Tabiiy geografik bilimlar; 2) tabiiy geografik omillar; 3) sanoat, qishloq

	xo'jaligi, transport tarmoqlari; 4) tabiiy geografik ob'yektlarning hududiy jihatlar; 5) ijtimoiy obyektlarning geografik jihatlar; 6) iqtisodiy geografik obyektlarning hududiy jihatlar; 7) kartografik va statistik ma'lumotlar bilan ishlash. 2-modulning ikkinchi yarmida, oxirgi seminarlardan birida taqdimotlar shaklida amalga oshiriladi. Kollokvium o'tkaziladigan sana to'g'risida talabalar modul boshida, birinchi yoki ikkinchi dars davomida ma'lum qilinadi. Guruh kichik guruhlariga bo'linish ishlashi mumkin. Kollokviumning maqsadi o'qituvchi tomonidan ilgari taklif qilingan sxema (savollar ro'yxati - mezon) va qo'shimcha ravishda bir guruh talabalar tomonidan taqdim etilgan taqdimot shaklida turli qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Materiallar (matnli ma'lumotlar shaklida), taqdimot taqdim etilgandan so'ng, har bir kichik guruh kichik guruhlarining boshqa a'zolari va o'qituvchining savollari bilan muhokama qilinadi. Mazmun jihatidan kollokvium Geografik ta'limning tadqiqot metodologiyasi kursining ma'lum qismini qamrab oladi. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarga har qanday manbalardan foydalanishga ruxsat beriladi. Aholi salomatligiga ta'sir etuvchi ekologik omillarning ilmiy tahlilini shakllantirish vazifalarini amalda qo'llay bilish ko'niklariga ega bo'lishi lozim. (malaka)
	VI. MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR: 1. Geografik ta'limning asosiy tadqiqot usullarini ayting. 2. Tabiiy geografik obyektlar va jarayonlardagi o'zgarishlarni izohlang. 3. Iqtisodiy geografik obyektlar va jarayonlardagi o'zgarishlarni izohlang. 4. Ijtimoiy geografik obyektlar va jarayonlardagi o'zgarishlarni izohlang. 5. Tabiiy geografik tadqiqot usullarini izohlang. 6. Iqtisodiy-ijtimoiy geografik tadqiqot usullarini izohlang. 7. Demografik tadqiqot usullarini izohlang.
4.	VII. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI: • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliq nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshiriqlarni bajarish
6.	ASOSIY ADABIYOTLAR: 1. Soatov A. Tabiiy geografik tadqiqot usullari. T.: Universitet, 2000. 2. Soliyev A.S., Karshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. -T., 1999. 3. Soliyev A., Nazarov M. Iqtisodiy geografik tadqiqot usullari. Ma'ruzalar matni. -T.: Universitet, 2000.

	Qo'shimcha adabiyotlar: 1. Zaynutdinov A. va boshq. Tabiiy geografiyadan o'quv-dala amaliyoti (CHorbog' o'quv-dala amaliyoti misolida). –T.: Universitet, 2003. 2. Zokirov SH.S. va boshq. Tabiiy geografiyadan o'quv dala praktikasi. -T.: ToshDU, 1989. 3. Soliyev A., Mallaboev T. Iqtisodiy va sotsial geografiyada ayrim qonuniyatlarni o'rganish metodikasi. -T., 1988. Elektron axborot manbalari: 1. www.pedagog.uz 2. www.edu.uz 3. http://ziyonet.uz 4. www.cspi.uz 5. www.lib.cspi.uz https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/mag_E/m_E_gos_Otsenka_zemel_i_kadastr.pdf https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/mag_E/m_E_rpp_dpv_Land_plan_disain_2021.pdf https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/mag_E/m_E_rpp_dpv_Socialnaya_ecologiya_2021.pdf
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 30-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas'ul va dastur muallifi: Mo'minov Doniyor G'ulomovich – “Geografiya va iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, g.f.n.
9.	Taqrizchi: Qo'ziboyeva Ozodaxon Mahmudovna - “Geografiya va iqtisodiyot” kafedrası professori, g.f.d.

Kafedra mudiri:

O.Tobirov

Fakultet dekani:

V.Xo'jayev